

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TARBIYAVIY
MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ
ОТНОШЕНИЯМИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF EDUCATIONAL
RELATIONSHIPS IN FUTURE TEACHERS**

Sadullayeva Guli Azadovna

Tadqiqodchi

E-mail: sadullaevaguli071@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi bo‘lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatida shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, tarbiyaviy munosabatlarni boshqarishda kommunikativ kompetensiya, empatiya va pedagogik refleksiya kabi ko‘nikmalarning ahamiyati tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyaviy munosabat, boshqaruv, pedagogik madaniyat, kommunikativ kompetensiya, empatiya, tarbiyaviy jarayon.*

Аннотация. *В диссертации рассматриваются теоретические и практические аспекты правильной организации и управления межличностными отношениями в образовательной деятельности будущих педагогов. Анализируется значение таких навыков, как коммуникативная компетентность, эмпатия и педагогическая рефлексия, в управлении образовательными отношениями.*

Ключевые слова: *образовательные отношения, управление, педагогическая культура, коммуникативная компетентность, эмпатия, образовательный процесс.*

Abstract. *This thesis covers the theoretical and practical aspects of the correct organization and management of interpersonal relationships in the educational activities of future teachers. It also analyzes the importance of skills*

such as communicative competence, empathy and pedagogical reflection in managing educational relationships.

Keywords: *educational relationship, management, pedagogical culture, communicative competence, empathy, educational process.*

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog shaxsining shakllanishi nafaqat kasbiy bilim va malakalar, balki tarbiyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Pedagogik jarayonda tarbiyaviy munosabat – bu o'qituvchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqadir. Bu aloqa o'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi.

Bo'lajak pedagog tarbiyaviy munosabatni boshqarishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

1. Pedagogik muloqotni tashkil etish – o'quvchi bilan individual yondashuv asosida samimiy, ochiq va motivatsion aloqa o'rnatish.
2. Tarbiyaviy ta'sir vositalarini tanlash – o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda so'z, namuna, rag'bat va nazorat vositalaridan oqilona foydalanish.
3. Pedagogik refleksiya – o'z faoliyatini tahlil qilib, xatolarni anglash va ularni bartaraf etish orqali tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish.
4. Empatik yondashuv – o'quvchining his-tuyg'ularini tushunish, unga psixologik qo'llab-quvvatlov ko'rsatish.

Tarbiyaviy munosabatlarni boshqarish bu o'qituvchi tomonidan o'quvchilar xatti-harakatlarini, o'zaro muloqotini va qadriyat tizimini maqsadga muvofiq yo'naltirish jarayonidir. Bu jarayonda pedagogik etika, psixologik sezgirlik va ijtimoiy mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat sari" konsepsiyasida tarbiyaviy faoliyatni zamon talablariga mos ravishda boshqarish, o'qituvchining tarbiyaviy salohiyatini oshirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Bo'lajak pedagoglarda tarbiyaviy munosabatni shakllantirish jarayoni murakkab, ammo juda muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'qituvchi shaxsining ma'naviy yetukligi, muloqot madaniyati va boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy munosabat, avvalo, insoniy qadriyatlar, o'zaro hurmat va ishonchga tayanadi. Pedagog o'z o'quvchilarining ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va qiziqishlarini yaxshi anglay olishi lozim. Bola o'z imkoniyatlarini faqatgina kattalar bilan muloqotda, ularning yo'l-yo'rig'i asosida namoyon etadi. Shu sababli, o'qituvchi o'zini buyruq beruvchi rahbar emas, balki yo'l ko'rsatuvchi hamroh, yo'l boshchi sifatida tutishi muhim.

Tarbiyaviy munosabatni boshqarishda pedagogning kommunikativ madaniyati va suhbat olib borish mahorati hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki o'qituvchi o'quvchi bilan qanday muloqot qilsa, bola shaxsining shakllanishiga ham shunday ta'sir ko'rsatadi. Samarali muloqot uchun pedagog faol tinglash, o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalash, ijobiy muhit yaratish, muammolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Ayniqsa, o'quvchining yutuqlarini e'tirof etish, unga ishonch bildirish va rag'batlantirish orqali o'qituvchi o'z tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Bugungi kunda tarbiyaviy jarayonni boshqarishda innovatsion yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Endilikda faqat an'anaviy usullar bilan ishlash yetarli emas, interfaol metodlar, loyiha asosidagi o'qitish, mentorlik tizimi, psixologik treninglar, shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish zarur. Masalan, "tarbiyachi–mentor" tizimi orqali o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning ichki muammolarini anglashga va hamkorlikda yechim topishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli platformalarda ham o'qituvchi o'quvchi bilan madaniyatli, mas'uliyatli va axloqiy munosabatni saqlashi kerak.

Tarbiyaviy munosabatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va urf-odatlarining o'рни beqiyosdir. O'zbekiston ta'lim tizimi yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik, halollik, odob-axloq va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib olgan. Shu bois, har bir bo'lajak pedagog o'z faoliyatida bu

qadriyatlarni nafaqat soʻz orqali, balki shaxsiy namuna orqali koʻrsatishi zarur. Oʻquvchi uchun oʻqituvchining oʻzini tutishi, nutq madaniyati, kiyinish uslubi, bosiqqligi va odobi eng kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Biroq amaliyotda tarbiyaviy munosabatlarni toʻgʻri tashkil etish har doim ham oson kechmaydi. Boʻlajak pedagoglar orasida oʻquvchilar bilan muloqotda psixologik tayyorgarlik yetarli emasligi, emotsional holatni boshqarish qiyinligi, individual yondashuvning yetishmasligi kabi muammolar uchraydi. Baʼzan oʻqituvchilar nazorat va erkinlik oʻrtasidagi muvozanatni topa olmay, oʻquvchilarda ishonchsizlik yoki passivlikni keltirib chiqaradilar. Shu sababli, pedagogik psixologiya faniga eʼtiborni kuchaytirish, kommunikativ treninglar, tajriba almashish mashgʻulotlarini yoʻlga qoʻyish muhimdir. Bundan tashqari, har bir pedagog oʻz faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi, yaʼni refleksiya orqali oʻzini takomillashtirishi kerak. Kuzatuv, oʻz ustida ishlash, tajribali ustozlar bilan fikr almashish, oʻquvchilarning fikrini inobatga olish oʻqituvchining tarbiyaviy salohiyatini oshiradi. Shundagina boʻlajak pedagog oʻz kasbiga fidokor, oʻquvchiga mehrli va jamiyat oldida masʼul shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa. Boʻlajak pedagoglar tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv, empatiya, kommunikativ madaniyat va pedagogik refleksiyani rivojlantirishi lozim. Shu asosda ular oʻquvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va axloqiy kamolotiga samarali taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
2. Xolmatov N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
3. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — Москва: Педагогика, 1991.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.